ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 26.04.2026 · Принята: 20.06.2026 · Опубликована: 30.06.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/krw72h12

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (2), 2026
www.jnculture.uz

Tasvir asosida yaratilgan fortepiano asarlari

(Piano Works Created on the Basis of Visual Images)

Saidakhon Sattorova

History and Theory of Uzbek Maqom,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: saidaxonsattorova992@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa va tasviriy san‘at o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda san‘atlar sintezi masalalari o‘zbek kompozitorlari ijodi misolida tadqiq etiladi. Tadqiqotda tasviriy san‘at asarlarining musiqiy tafakkur, obraz yaratish jarayoni va kompozitorlik uslubiga ko‘rsatgan ta‘siri yoritilgan. Xususan, G. Mushel, M. Tojiev, D. Yanov-Yanovskiy, Z. Xodieva va boshqa kompozitorlarning tasviriy san‘atdan ilhomlanib yaratilgan fortepiano asarlari musiqiy-tahliliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Maqolada rang va koloritning lad-garmonik tuzilma, ritm, faktura hamda musiqiy dramaturgiya orqali ifodalanishi, dasturiylik tamoyillarining namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, rassomlar yaratgan obrazlar va badiiy g‘oyalarning musiqiy ifoda vositalari orqali qayta talqin qilinishi hamda san‘at turlarining o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga kelgan yangi badiiy echimlar ochib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek kompozitorlik maktabida tasviriy san‘at va musiqa uyg‘unligining muhim o‘rin tutishini hamda bunday sintez milliy musiqa madaniyatining badiiy imkoniyatlarini yanada boyitishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: musiqa va tasviriy san‘at, san‘atlar sintezi, fortepiano musiqasi, dasturiy asar, musiqiy obraz, rang va kolorit, o‘zbek kompozitorlari.

Abstract

This article examines the interaction between music and visual art within the framework of artistic synthesis through the example of works created by Uzbek composers. The study focuses on the influence of pictorial images, color palette, composition, and artistic ideas on musical thinking and the formation of musical imagery. Particular attention is paid to piano compositions by G. Mushel, M. Tojiyev, D. Yanov-Yanovsky, Z. Khodieva, and other composers whose works were inspired by paintings and various forms of visual art. The research analyzes the role of programmatic principles, modal and harmonic organization, rhythm, texture, and

musical dramaturgy as essential means of artistic expression. Furthermore, the article reveals the specific features of translating visual images into musical language and highlights the importance of interdisciplinary artistic connections in the creation of new aesthetic concepts. The findings demonstrate that the interaction between music and visual art occupies a significant place in the development of the Uzbek compositional school and contributes to the enrichment of the artistic and expressive potential of national musical culture.

Keywords: music and visual art, synthesis of arts, piano music, programmatic composition, musical image, color and palette, Uzbek composers.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы взаимодействия музыки и изобразительного искусства в контексте синтеза искусств на примере творчества узбекских композиторов. Исследование посвящено выявлению особенностей влияния живописных образов, цветовой палитры, композиции и художественных идей на музыкальное мышление и процесс создания музыкального образа. Особое внимание уделяется фортепианным произведениям Г. Мушеля, М. Тожиева, Д. Янова-Яновского, З. Ходиевой и других композиторов, созданным под воздействием произведений изобразительного искусства. В статье анализируются вопросы программности, ладо-гармонической организации, ритма, фактуры и музыкальной драматургии как важных средств художественной выразительности. Раскрываются особенности музыкальной интерпретации живописных образов и роль межвидовых художественных связей в формировании новых творческих решений. Полученные результаты свидетельствуют о значимости взаимодействия музыки и изобразительного искусства в развитии узбекской композиторской школы и расширении художественно-образных возможностей национальной музыкальной культуры.

Ключевые слова: музыка и изобразительное искусство, синтез искусств, фортепианная музыка, программное произведение, музыкальный образ, цвет и колорит, узбекские композиторы.

Mustaqil tarzda rivoj topgan san‘at turlari orasida sintetik tabiatga asoslangan ko‘rinishlari ham kam emas. Har bir san‘at turi, ma‘lum pallada o‘zga san‘atlardan ilhom olib, ularga tayanib o‘z badiiy namunalarini kashf qiladi. Tasviriy san‘at va musiqa san‘ati o‘rtasidagi uyg‘unlik ham tarixiy ahamiyatga ega.

Har bir xalqning madaniy merosi, an‘analari go‘zal va betakror ko‘rinishda milliy san‘at namunalarida muhrlangan. Raqs, musiqa, badiiy so‘z, tasviriy va amaliy san‘atlar mujassamligida xalqning ijodiyotining yorqin namunalari, janr va shakllari yuzaga kelgan. Tomosha, masxaraboz va qo‘g‘irchoqlar san‘ati, turli-tuman bayram va marosimlarda namoyish etilgan ijodiy chiqishlar san‘atlarning sintezi o‘laroq yuzaga kelgan.

Zamonaviy bosqichda musiqa va tasviriy san‘at uyg‘unligi san‘atlar sintezi kesimida qiziqarli ijod namunalari va g‘oyalarini yaratilishiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu ikki san’at turlarida o‘zaro yaqinlik nafaqat idrok etish jarayonida, balki, asarda bajargan funktsional analogiyalar asosida, atamalar ishlatilishida, badiiy musiqiy va tasviriy olam qirralarini ochishdagi umumiy va o‘xshash qirralari bilan aniqlanadi. Musiqaning garmoniya, ritm, faktura, kompozitsion dramaturgiyasidan tortib maxsus ifoda vositalar doirasini ishlatilishiga qadar bu jihatlar tom ma’noda tasviriy san’at namunalarini yuzaga kelishida ham muhim asos bo‘ladi [1].

Audio va vizual san’at turlari qabul va idrok qilish sensorlari insonda har xil bo‘lishiga qaramay ular o‘zaro muloqotga kirishib bir xil hodisalarni o‘z ifoda vositalari yordamida namoyon qiladilar. Ayrim hollarda o‘zga san’at namunalari yangi asar yaratilishiga turtki berib ularda sirlangan katta va boy badiiy resurslarni ochishga yo‘l ochib beradi.

O‘zbek kompozitorlik ijodiyoti shakllanishidan to bugungi kunga qadar bosib o‘tgan katta yo‘lida, Sharq va G‘arb ijod an’analari mushtarakligida rivoj topishi bilan ajralib turadi. Kompozitorlar o‘z ijodida Jahon tajribasiga tayanib serqatlam janr va yo‘nalishlarda o‘z asarlarini yaratib kelmoqdalar.

Ma’lumki yangi asar tug‘ilishida, ko‘pincha ilhom manbasi bo‘lib xizmat qilgan hodisalar, voqeliklar, ijodkorni hayratda qoldirgan yoki o‘ziga rom etgan ob’ektlar, o‘y-fikrlari, egallagan g‘oyalari, orzu umidlari badiiy ko‘rinishda o‘z

ifodasini yaratgan asarlarida topadi. Kompozitorlarni ijod qilishida dasturiylik asosi buning yorqin misolidir. O‘zga san’atlar ta’sirida, jumladan tasviriy san’atdan ilhom olib yaratilgan asarlar ham kam emas. Tasviriy polotnolarning ta’siri ortida kompozitorlarning original asarlarni yaratilishi o‘zbek kompozitorlik maktabi ijodkorlari faoliyatida ham o‘rin oladi.

Kartina koloritini belgilagan issiq va sovuq ranglar musiqiy asarning lad asosi, rassom shtrixlari esa musiqiy bezaklar va fakturani talqinida o‘zgacha yoritilganligida ko‘rishimiz mumkin.

Bu borada yana bir bor taniqli rassom va kompozitor M. Chyurlyonisning ijodini yodga olib, o‘zbek kompozitorlik ijodiyotida shunday shaxslardan biri bo‘lgan G.Mushelning ijodiy faoliyatini namuna sifatida keltirish mumkin. Kompozitor qalamiga mansub fortepiano uchun yozgan “Pushti sonatina”si, skripka va fortepiano uchun “Akvarel” nomli №1 syuitasi, shuningdek, yana bir qator ijodkor-kompozitorlar, jumladan, M. Tojievning “Ko‘hna Samarqand yuragi” nomli nurli-ovozli panoramasi [2], D. Yanov-Yanovskiyning fortepiano uchun “Chyurlyonis kartinasi”, M.Otajonovning fortepiano uchun “Ohanrabo” pesasi hamda “Yog‘dular” nomli asarlari, Z.Xodievaning “Akvarel” musiqiy manzarasi, tuba va fortepiano uchun yozilgan “Naqsh”, hamda “Eski shahar” kartinasi ta’sirida yozilgan “Sonatina”si shular jumlasidandir.

Barchamizga ma’lumki, ijodkor borliqdagi voqelikni qanday tasavvur qilsa, rassomlar uni bo‘yoqlar, maxsus ifoda vositalar tizimi yordamida tasvirlab beradi. Kompozitorlar ham bu borada musiqiy ohanglar, garmoniya, ritm, faktura, lad tizimi, musiqiy ifoda vositalarning boy imkoniyatlarini qo‘llaydilar. Shu ma’noda har bir davrning san’atdagi, jumladan, musiqa va tasviriy san’atda o‘z rang palitrasi va sur’ati bo‘lgan desak adashmagan bo‘lamiz (klassitsizm, romantizm, impressionizm va b.) [2].

O‘z ijodida ikkala san’atning qirra va xususiyatlarini bir ijodkor nigohi bilan ochib berilishi har doim ham amaliyotda uchramaydi va bu borada alohida e’tiborni tortadi. Atoqli kompozitor Georgiy Mushel ijodi boshqalardan ajralib turadi [3].

Kompozitor ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu uning musiqasida tabiat va hayotiy hodisalarni vizual idrok etish, tasviriy obrazlar bilan bog‘lagan holda musiqiy talqinida ochishdan iborat. Musiqaning garmoniyasi, tembr va registr bo‘yoqlari tom ma’noda uning tasviriy asarlarda ochilgan bo‘lsa ajab emas.

G. Mushel o‘z asarlarini ranglarga qiyoslab berganini ko‘ramiz. Ayrim asarlari dastur asosida nom olgan. Ana shunday asarlardan biri muallifning Yuriy Fortunatovga bag‘ishlagan “Pushti sonatina” asaridir. Mazkur asar Allegretto tempida, a-moll tonalligida yozilgan. Asar sonatina shaklida bo‘lib, mavzu jihatidan yorqin xarakterni tarannum etadi.

Metro-ritmik jihatdan musiqiy asar 2/4–3/4–4/4 o‘lchovlarning almashinuvi natijasida poliritmik tasvirni musiqiy matoda aks etadi. Asar kompozitsion tuzilishi 3-qismli bo‘lib, quyidagi tonal rejaga asoslangan: birinchi qism – a-moll, ikkinchi qism- F-dur, uchinchi qism- A-dur tonalligi. Musiqiy mavzu “Chamanda gul” o‘zbek xalq qo‘shig‘ini ohang yo‘lini eslatadi. Ekspozitsion qismda mavzu yorqin bo‘yoqlarda tasvirlanadi.

Zamonaviy o‘zbek kompozitorlik ijodiyotining yosh navqiron vakillaridan biri, o‘zbek milliy, akademik, vokal, cholg‘u, klassik va ommaviy turlarining rivojida boy o‘zbek musiqa merosiga asoslangan, sharq va g‘arb mumtoz san’atlarining izidan borib turli shakl, uslub, janrlarda ijod qilib kelayotgan kompozitor Z. Xodieva ijod namunalarida ham tasviriy asarlarning o‘rni alohida turadi.

Kompozitorning jozibador musiqasi o‘ziga xos bo‘lib, musiqa orqali his tuyg‘ulari, dil izhorlari, dardu-alamlarini ifodalab kelmoqda. “Tinglovchi

musiqadan taassurot, ma’lum bir tasvirni esda saqlab qolishi kerak deb o‘ylayman” deydi kompozitorning o‘zi.

Darhaqiqat, Z.Xodieva ijodida tasviriy san’atning ta’sirini uning “Eski shahar”, “Akvarel”, “Naqsh” “Sonatina” kabi asarlarida ko‘rish mumkin.

Kompozitor mashhur o‘zbek rassomi B.Jalol kartinalaridan ilhomlanib o‘zining fortepiano uchun “Eski shahar” nomli turkum asarini, Britaniyalik (ingliz) rassom J.Vollning go‘zal manzaralaridan ta’sirlanib orkestr uchun “Akvarel” simfonik manzarasini, G.Zilbermanning “Muhabbatim shahri – Toshkent” nomli kartinasidan zavqlanib fortepiano uchun “Sonatina”sini, milliy hunarmandchilik san’ati ya’ni kulol ustalarning naqshinkor ijodlari ostida tuba va fortepiano uchun “Naqsh” nomli asarini yaratadi. Bundan tashqari “Raqs” va “Charxpalak” kabi asarlari ham yorqin tasviriy bo‘yoqlar bilan yo‘g‘rilgandir [5].

Kompozitorning o‘z sonatinasini yaratilishi xususida muallif tomonidan keltirgan ma’lumotlar qiziq. Z.Xodieva 2014 yili Tasviriy san’at galereyasiga tashrif buyuradi. U erda turli o‘zbek rassomlarining ishlaridan tashkillashtirilgan bo‘lib, ular orasida G.Zilbermanning 1982-yilda yaratilgan «Muhabbatim shahri-Toshkent» kartinasi ijodkorni e’tiborini tortdi.

Asarda Toshkentning eski shaharlaridan biri tasvirlangan bo‘lib, unda bozorlarda tomosha ko‘rsatayotgan dorbozlar, masxarabozlar va musiqachilar tasviri, shu bilan birga to‘y marosimi o‘z aksini topgan. Aynan kompozitorga bunday ajoyib kartinaning masxarabozlari obrazi nihoyat ta’sir qilib, sonatinaning musiqiy mavzusi paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu asarning kuy o‘zining o‘yinqaroq xarakteri, engilligi, masxarabozning turli harakatlari tasvirlab beruvchi manzarani ochib beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, rassomlar tomonidan kartinalar orqali ochib beruvchi mavzu, obrazlar dunyosi, taratgan hissiyot olami, ranglar jilosi ma’lum ma’noda kompozitor yaratgan musiqiy kuyning betakror tovush

ohanglarida, fakturaning dinamik harakatida, musiqa san’atining boy va rang-barang ifoda vositalari tizimi orqali asarda o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Галеев Б. М. Светомузыка в системе искусств. — Казань : КГК, 1991.
2. Yunusov R. Mirsodiq Tojiyev. – Toshkent, 2008.
3. Кассу Ж. Энциклопедия символизма: живопись, графика, скульптура. — Москва, 1999.
4. Пеккер Я. Георгий Мушель. — Москва, 1966.
5. Алимбекова G. Ijod — doimiy izlanish: kompozitor Zarina Xodiyevaning ijodiy portreti: qo‘lyozma. — Toshkent, 2021.

References

1. Galeyev, B. M. *Svetomuzyka v sisteme iskusstv* [Light music in the system of arts]. Kazan: KGK, 1991. (in Russian)
2. Yunusov, R. *Mirsodiq Tojiyev*. Tashkent, 2008. (in Uzbek)
3. Cassou, J. *Entsiklopediya simvolizma: zhivopis', grafika, skul'ptura* [Encyclopedia of Symbolism: Painting, Graphics, Sculpture]. Moscow, 1999. (in Russian)
4. Pekker, Ya. *Georgiy Mushel'*. Moscow, 1966. (in Russian)
5. Alimbekova, G. *Ijod — doimiy izlanish: kompozitor Zarina Xodiyevaning ijodiy portreti* [Creativity Is a Constant Search: A Creative Portrait of the Composer Zarina Khodieva]. Manuscript. Toshkent, 2021. (in Uzbek)